

TALABALARNING RAQAMLI RESURLAR YARATISHIDA CHATBOTLARDAN FOYDALANISH: AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi

Qo'qon davlat universiteti doktoranti

dilshodaxonmaxkamova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22733293>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektga asoslangan chatbotlarning (ChatGPT, Gemini, Copilot va boshqalar) oliy ta'lim talabalari tomonidan raqamli resurslar — taqdimotlar, matnli materiallar, infografika, video-skriptlar va boshqa o'quv mahsulotlari — yaratishda qo'llanilishi tahlil qilingan. Adabiyotlar tahliliga asoslangan ushbu tadqiqotda chatbotlarning talabalar ijodiy-akademik faoliyatiga ta'sirini ikki tomonlama — ijobiy va salbiy — jihatdan yoritish maqsad qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, chatbotlar vaqtni tejash, individuallashtirilgan yordam ko'rsatish, g'oyalarni tezda generatsiya qilish va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalarning raqamli resurslar yaratish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Shu bilan birga, generatsiya qilingan kontentning aniqligi past bo'lishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashning susayishi, plagiat va akademik halollik bilan bog'liq muammolar, shuningdek chatbotlarga ortiqcha bog'lanib qolish kabi jiddiy kamchiliklar ham aniqlangan. Maqola yakunida chatbotlardan mas'uliyatli va samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: chatbot, sun'iy intellekt, raqamli resurslar, talabalar, ta'limda AI, ChatGPT, akademik halollik, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В статье анализируется использование чат-ботов на основе искусственного интеллекта (ChatGPT, Gemini, Copilot и др.) студентами

высших образовательных учреждений для создания цифровых ресурсов, включая презентации, текстовые материалы, инфографику, видеосценарии и другие образовательные продукты. На основе анализа научной литературы исследование направлено на рассмотрение влияния чат-ботов на творческую и академическую деятельность студентов с положительной и отрицательной сторон. Результаты показывают, что чат-боты значительно облегчают процесс создания цифровых ресурсов за счёт экономии времени, предоставления индивидуализированной помощи, оперативной генерации идей и развития технических навыков. Вместе с тем выявлены и серьёзные недостатки, включая низкую точность генерируемого контента, снижение уровня критического и творческого мышления, проблемы, связанные с плагиатом и академической добросовестностью, а также чрезмерную зависимость от чат-ботов. В заключение статьи представлены практические рекомендации по ответственному и эффективному использованию чат-ботов в образовательном процессе.

Ключевые слова: чат-бот, искусственный интеллект, цифровые ресурсы, студенты, искусственный интеллект в образовании, ChatGPT, академическая добросовестность, критическое мышление.

Abstract: This article analyzes the use of artificial intelligence-based chatbots (ChatGPT, Gemini, Copilot, and others) by higher education students to create digital resources, including presentations, textual materials, infographics, video scripts, and other educational products. Based on a review of the literature, the study aims to examine the impact of chatbots on students' creative and academic activities from both positive and negative perspectives. The findings indicate that chatbots significantly facilitate the process of creating digital resources by saving time, providing individualized assistance, generating ideas rapidly, and developing technical skills. At

the same time, several serious drawbacks have been identified, including the low accuracy of generated content, reduced critical and creative thinking, problems related to plagiarism and academic integrity, as well as excessive dependence on chatbots. The article concludes with practical recommendations for the responsible and effective use of chatbots in the educational process.

Keywords: *chatbot, artificial intelligence, digital resources, students, AI in education, ChatGPT, academic integrity, critical thinking.*

KIRISH.

So'nggi yillarda sun'iy intellektga asoslangan chatbotlarning keng tarqalishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. ChatGPT, Google Gemini, Microsoft Copilot kabi vositalar endilikda nafaqat ma'lumot izlash, balki matn yozish, taqdimot tayyorlash, infografika g'oyalarini ishlab chiqish, video-skriptlar tuzish va boshqa ko'plab raqamli resurslarni yaratishda talabalarning kundalik yordamchisiga aylandi (Kuhail va boshq., 2023). Gökçearsan, Tosun va Erdemir (2024) tomonidan 37 ta SSCI indeksidagi maqolalar asosida o'tkazilgan tizimli tahlilda ta'kidlanishicha, o'quv motivatsiyasining oshishi va til ko'nikmalarining rivojlanishi chatbotlarning eng ko'p qayd etilgan afzalliklari hisoblanadi.

Talabalar tomonidan raqamli resurslar yaratish — zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Kurs ishlari, taqdimotlar, loyihalar va mustaqil ishlarni tayyorlashda chatbotlardan foydalanish talabaniing vaqtini tejashi, ijodiy jarayonni tezlashtirishi mumkin (Dakalbab va boshq., 2024). Biroq bu jarayon bir qator xavflarni ham o'zida mujassam etadi: generatsiya qilingan ma'lumotning noto'g'ri yoki eskirgan bo'lishi, talabaniing mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish o'rniga tayyor javoblarga o'rganib qolishi, shuningdek akademik halollik bilan bog'liq muammolar (Lo, 2023, keltirilgan: Dakalbab va boshq., 2024). Shu sababli,

chatbotlarning talabalar tomonidan raqamli resurslar yaratishdagi o'rnini har tomonlama, ob'ektiv tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — talabalarning raqamli resurslar (taqdimot, matn, infografika, video-kontent va boshqalar) yaratish jarayonida chatbotlardan foydalanishning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini mavjud ilmiy adabiyotlar asosida tizimlashtirish, ularni tahlil qilish va ta'lim amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan: 1) chatbotlarning talabalar tomonidan raqamli resurslar yaratishda qo'llanilish shakllarini aniqlash; 2) ushbu jarayondagi asosiy afzalliklarni ilmiy manbalar asosida tizimlashtirish; 3) yuzaga keladigan kamchiliklar va xavflarni tahlil qilish; 4) aniqlangan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqot tavsiflovchi-analitik xarakterga ega bo'lib, adabiyotlar tahlili (narrative literature review) metodidan foydalanilgan. Manbalarni izlash jarayonida Google Scholar, Frontiers, ScienceDirect, Springer, ResearchGate va ERIC kabi xalqaro ilmiy bazalar, shuningdek O'zbekiston ilmiy jurnallaridan 2023–2025-yillarda chop etilgan tegishli maqolalar tanlab olindi.

Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi: (a) mavzu sun'iy intellekt chatbotlarining ta'limda, xususan talabalar tomonidan kontent/resurs yaratishda qo'llanilishiga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi; (b) nashr 2023-yildan keyin chop etilgan bo'lishi; (v) tizimli sharh (systematic review), empirik tadqiqot yoki nazariy tahlil shaklida bo'lishi. Qidiruv natijasida dastlab 20 dan ortiq manba aniqlanib, ulardan mazmuni va ishonchliligi bo'yicha eng mos 10 ga yaqin manba chuqur tahlil uchun tanlab olindi.

Tahlil jarayonida kontent-tahlil (content analysis) yondashuvidan foydalanilib, tanlangan manbalardagi ma'lumotlar ikki asosiy kategoriyaga — "afzalliklar" va "kamchiliklar" — ga ajratilib guruhlandi va umumlashtirildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu maqola birlamchi empirik so'rovnoma ma'lumotlariga emas, balki mavjud tadqiqotlarda qayd etilgan empirik va nazariy natijalarning sintezi (ikkilamchi tahlil)ga asoslangan bo'lib, bu jihat tadqiqotning cheklovi sifatida Muhokama bo'limida alohida ko'rsatilgan.

NATIJALAR

Talabalarning raqamli resurslar yaratishida chatbotlardan foydalanishning afzalliklari. Tahlil qilingan manbalar asosida chatbotlarning talabalar uchun raqamli resurslar yaratishdagi bir qator muhim afzalliklari aniqlandi.

Vaqtni tejash va samaradorlikni oshirish. Bin Arif va boshqalar (2023, keltirilgan: Dakalbab va boshq., 2024) ta'kidlashicha, chatbotlar matn loyihalash, xulosalash va adabiyotlar sharhini tayyorlash kabi jarayonlarni sezilarli darajada tezlashtiradi. Bu, ayniqsa, qisqa muddatda ko'plab taqdimot va hisobotlar tayyorlashi kerak bo'lgan talabalar uchun katta amaliy foyda beradi.

Individuallashtirilgan yordam va tezkor fikr-mulohaza. Dakalbab va boshqalar (2024) tadqiqotida chatbotlarning "individuallashtirilgan yordam" va "tezkor fikr-mulohaza" berish qobiliyati talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiruvchi asosiy omil sifatida qayd etilgan. Murtozaqulova (2025) tadqiqotida ham chatbot va virtual yordamchilarning sutkaning istalgan vaqtida maslahat va yordam bera olishi alohida ta'kidlangan — bu ish bilan ta'limni birlashtirgan talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

G'oyalarni tezda generatsiya qilish va ijodiy jarayonni qo'llab-quvvatlash. Chatbotlar taqdimot mavzulari, infografika kontsepsiyalari, video-skriptlar uchun boshlang'ich g'oyalar generatsiya qilish orqali talabalarning "oq varaq sindromi" (ijodiy

bloklanish)ni yengishga yordam beradi. Gökçearsan va boshqalar (2024) o'tkazgan tizimli tahlilda o'quv motivatsiyasining oshishi va shaxsiylashtirilgan adaptiv ta'lim muhitining shakllanishi chatbotlarning eng muhim afzalliklari sifatida qayd etilgan.

Til va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Bir qator tadqiqotlarda chatbotlar bilan muntazam ishlash talabalarning yozma bayon qilish, matnni tahrirlash va tuzilmalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan (Gökçearsan va boshq., 2024).

Texnologik va raqamli savodxonlikni oshirish. Chatbotlar bilan ishlash jarayonida talabalar so'rov (prompt) tuzish, natijalarni tanqidiy baholash va turli raqamli vositalarni birgalikda qo'llash kabi zamonaviy raqamli ko'nikmalarni egallaydilar, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun ham foydali hisoblanadi.

Talabalarning raqamli resurslar yaratishida chatbotlardan foydalanishning kamchiliklari. Shu bilan birga, tahlil natijalari chatbotlardan foydalanish bilan bog'liq bir qator jiddiy kamchilik va xavflarni ham namoyon qildi.

Ma'lumotlarning noto'g'ri yoki eskirgan bo'lishi. Dakalbab va boshqalar (2024) tadqiqotida ta'kidlanishicha, chatbotlar "chalg'ituvchi yoki noto'g'ri ma'lumot" berishi mumkin va bu ularning modelidagi tizimli xatolik (bias)lar bilan bog'liq. Gökçearsan va boshqalar (2024) ham "noto'g'ri javoblar", "murakkab iboralarni tushunmaslik" va "eskirgan ma'lumotlar" chatbotlardan foydalanishning eng ko'p uchraydigan muammolari ekanligini aniqlashgan. Bu, talaba tomonidan tayyorlangan raqamli resurslarning ilmiy va faktik jihatdan ishonchliligiga jiddiy tahdid soladi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlashning susayishi. Sok va Heng (2023, keltirilgan: Dakalbab va boshq., 2024) chatbotlarga "haddan tashqari bog'lanib qolish" talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Talaba tayyor javoblarni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul

qilganida, uning o'z fikrini shakllantirish va original g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati susayishi mumkin.

Akademik halollik va plagiat muammosi. Lo (2023, keltirilgan: Dakalbab va boshq., 2024) chatbotlar tomonidan generatsiya qilingan matnlarning an'anaviy plagiat aniqlash tizimlaridan "chetlab o'tishi" mumkinligini qayd etadi, bu esa ta'lim muassasalaridan baholash usullarini va institutsional siyosatni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Gökçearslan va boshqalar (2024) tadqiqotida ham originallik va plagiat muammosi o'qituvchilar tomonidan eng ko'p qayd etilgan kamchilik sifatida ko'rsatilgan.

Muloqot va shaxsiylashtirishning cheklanganligi. Ba'zi tadqiqotlarda chatbotlarning murakkab, ko'p qatlamli savollarga cheklangan darajada javob berishi, shuningdek jonli inson bilan muloqotga xos nozik pedagogik yondashuvni to'liq almashtira olmasligi qayd etilgan (Gökçearslan va boshq., 2024). Murtozaqulova (2025) tadqiqotida ham chatbotlarning "funksional cheklanganligi" alohida ta'kidlangan bo'lib, so'rovnoma natijalariga ko'ra ularning asosiy qismi hozircha faqat darsdan tashqari maslahat berish maqsadida qo'llanilmoqda.

Texnik va etik xavflar. Generativ sun'iy intellekt chatbotlaridan foydalanish shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi, mualliflik huquqi va foydalanuvchi ma'lumotlarining qanday saqlanishi bilan bog'liq etik savollarni ham keltirib chiqaradi, bu masalalar talabalar va o'qituvchilar tomonidan ko'pincha yetarlicha e'tiborga olinmaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, chatbotlar talabalarning raqamli resurslar yaratish jarayoniga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, ular vaqtni tejash, g'oyalarni tezda generatsiya qilish va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish orqali sezilarli amaliy foyda beradi. Ikkinchi tomondan, ma'lumotlarning noaniqligi, tanqidiy

fikrlashning susayishi va akademik halollik bilan bog'liq muammolar ushbu texnologiyadan foydalanishni ehtiyotkorlik bilan tashkil etishni taqozo etadi.

Muhim jihat shundaki, ko'plab tadqiqotlarda (Dakalbab va boshq., 2024; Gökçearsan va boshq., 2024) qayd etilgan afzallik va kamchiliklar bir-biri bilan uzviy bog'liq: masalan, chatbotning tezkor javob berish qobiliyati bir tomondan foyda keltirsa, ikkinchi tomondan talabani tekshirmasdan javobni qabul qilishga undashi mumkin. Shu sababli, natija ko'p jihatdan talabani o'zi chatbotdan qanday foydalanishiga — uni tayyor javob manbai sifatida yoki fikrlashga yordamchi vosita sifatida qabul qilishiga — bog'liq bo'ladi.

Ushbu tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, tahlil asosan ikkilamchi manbalarga, ya'ni boshqa tadqiqotchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, O'zbekiston talabalari orasida maxsus o'tkazilgan keng ko'lamli so'rovnoma natijalarini o'z ichiga olmaydi. Ikkinchidan, chatbot texnologiyalari juda tez rivojlanayotgani sababli, ba'zi topilmalar (masalan, aniqlik darajasiga oid) yangi model versiyalari chiqishi bilan tezda eskirishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda mahalliy oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida empirik so'rovnoma o'tkazish, shuningdek turli fakultet va yo'nalishlar kesimida chatbotlardan foydalanish amaliyotini qiyosiy tahlil qilish tavsiya etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar talabalarning raqamli resurslar yaratish faoliyatida muhim va tobora kengayib borayotgan o'rin egallamoqda. Ular vaqtni tejash, individuallashtirilgan yordam ko'rsatish va ijodiy jarayonni tezlashtirish orqali sezilarli afzalliklarga ega. Shu bilan birga, ma'lumotlarning ishonchliligi, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va akademik halollik bilan bog'liq kamchiliklar ushbu vositalardan foydalanishda ehtiyotkorlik va ongli yondashuvni talab qiladi.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: 1) oliy ta'lim muassasalarida chatbotlardan foydalanish bo'yicha aniq qoidalar va yo'riqnomalar ishlab chiqish; 2) talabalarga chatbot natijalarini tanqidiy baholash va tekshirish ko'nikmalarini o'rgatish; 3) chatbotni yakuniy mahsulot yaratuvchisi emas, balki yordamchi vosita sifatida qo'llashni targ'ib qilish; 4) o'qituvchilar tomonidan baholash mezonlarini sun'iy intellekt davri talablariga moslashtirish. Ushbu yondashuv chatbotlarning ijobiy salohiyatidan to'liq foydalanish bilan birga, ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dakalbab, F., Talib, M. A., Abu Waraga, O., Bou Nassif, A., Abbas, S., & Nasir, Q. (2024). Exploring the impact of ChatGPT: conversational AI in education. *Frontiers in Education*, 9, 1379796.
2. Gökçearsan, Ş., Tosun, C., & Erdemir, Z. G. (2024). Benefits, Challenges, and Methods of Artificial Intelligence (AI) Chatbots in Education: A Systematic Literature Review. *International Journal of Technology in Education*, 7(4).
3. Kuhail, M. A., Alturki, N., Alramlawi, S., & Alhejori, K. (2023). Role of AI chatbots in education: systematic literature review. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 20, 1–42.
4. Murtozaqulova, M. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi va uning imkoniyatlari. Qo'qon davlat universiteti xabarnomasi.
5. Lo, C. K. (2023). What is the impact of ChatGPT on education? A rapid review of the literature. *Education Sciences*, 13(4), 410.
6. Sok, S., & Heng, K. (2023). ChatGPT for education and research: A review of benefits and risks. *Cambodian Journal of Educational Research*, 3(1), 110–121.



7. Bin Arif, T., Munaf, U., & Ul-Haque, I. (2023). The future of medical education and research: Is ChatGPT a blessing or blight in disguise? Medical Education Online, 28(1), 2181052.